

## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


*2025-yil yanvar-iyun oylari uchun*

- I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 9 896 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi<sup>1</sup>




***Kichik tadbirkorlik***

**Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

	<b>2024-yil 1-iyul holatiga, birlik</b>	<b>2025-yil 1-iyul holatiga, birlik</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>9 912</b>	<b>9 896</b>
Guliston sh	2 204	2 446
Shirin sh	236	214
Yangiyer sh	758	753
Oqoltin tumani	709	657
Boyovut tumani	895	862
Sayxunobod tumani	744	670
Guliston tumani	785	722
Sardoba tumani	859	912
Mirzaobod tumani	879	905
Sirdaryo tumani	1240	1212
Xovos tumani	603	543

**Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**



**Iqtisodiy faoliyat turlari**


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni](#)

## II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-iyun oylarida 1 007 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 386 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 199 ta, sanoatda 126 ta hamda boshqa xizmatlarda 92 ta tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 039</b>	<b>1 007</b>
Guliston sh	212	266
Shirin sh	14	20
Yangiyer sh	64	78
Oqoltin tumani	127	56
Boyovut tumani	90	75
Sayxunobod tumani	68	61
Guliston tumani	94	55
Sardoba tumani	97	89
Mirzaobod tumani	112	117
Sirdaryo tumani	93	138
Xovos tumani	68	52

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

### III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 66,9% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 7,2% ga ko'paygan.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YAHMdagi ulushi \(choraklik\)](#)

#### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 732,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 55,6% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 169,1% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin (100,0%), Xovos (85,6%), Boyovut (95,3%), Yangiyer shahar (80,8%) va Mirzaobod (81,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)  
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 156,5 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 82,8% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,2% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (95,4%), Snirin shahar (96,0%) va Sayxunobod (88,7%) tumaniga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)  
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)


### *Kichik tadbirkorlik*

### **Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati**

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7 083,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 74,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 169,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahar (96,0 %), Yangiyer shahar (95,4 %), Sayxunobod (88,7%) va Oqoltin (76,4%) tumanlariga to'g'ri keldi.

### **Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



#### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 6 074,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,9% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,9% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahar (100,0%), Sayxunobod (100,0 %), Boyovut (99,8%) va Xovos (99,7%) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



**Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati**

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 2 885,9 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmining 93,1% ni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko‘p ulushi Shirin shahri (100,0%) Oqoltin (99,0%), Guliston (98,4%), Sayxunobod (97,8%) va Xovos (99,0%) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati**

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 4 098,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 64,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,3 % ni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dina**



**mikasi**

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati**

2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 95,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 70,0% ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati**

2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 192,1 mln AQSH dollarini yoki jami importning 74,0% ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Guliston – 100,0%, Oqoltin – 100,0%, Yangiyer shahar – 99,8%, Boyovut – 99,8%, Xovos – 94,9%, Sirdaryo tumanlarida – 83,5% ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

#### **IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**

##### **Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi**


2025-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,6% ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,1% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 87,0% ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,7% ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,1% ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0% ni tashkil qildi.

##### **Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi**



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


**V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari**

**Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 30,0% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyun oylarida esa 36,1 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 6,1 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 58,8 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 58,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 11,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga kelib, bu ko'rsatkich 5,6 % ga yetgan.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)**




### Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 55,4 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 48,7 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 39,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 45,6 % yoki 6,3 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 5,3,% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga kelib, bu ko'rsatkich 5,7 % ni tashkil qildi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




### Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2025-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 32,1 % ni, savdoda – 39,5,% ni va xizmatlar sohasida – 45,2,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 79,3 % ni, sanoatda – 62,3 % ni va savdoda – 54,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,1 % ni, sanoatda – 5,7 % ni va savdoda – 5,7 % ni tashkil etdi.



**Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)**



**VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

*Kichik tadbirkorlik*



Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

---

**Tayyorlash uchun mas’ul:**

Tadbirkorlik subyektlari  
kuzatuvlari bo‘limi

**Ijrochi:**

K. Yusupov  
67 236-70-00 (2030)

---